

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Feruza Aminovna Turakulova

Qo'qon davlat pedagogika institut katta o'qituvchisi

Mustafaqulov Xurshidbek

Muhammadiyeva Setora

Qo'qon davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabalar

Annotasiya: mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limgan texnologiyalarining o'quvchilarning faoliyatida tutgan o'rni, mazmun va maqsadi yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ta'limgan texnologiyalar, mohirlik, san'at, mahorat, insonparvarlik pedagogikasi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limgan o'z mohiyatiga ko'ra ta'limgan jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limgan loyihalashtirilayotganda, albatta ma'lum bir ta'limgan oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi-pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashishdir. Bu esa o'z navbatida bilim, malaka, ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirib, mohirlik, san'at bilan o'quvchilarga uqtirish demakdir. Shu bilan birga turli xil adabiyotlarni o'qitish boshqa fanlar bilan aloqadorligini anglash fan sohasidan kelib chiqib, har tomonlama mohirlik, sifatlarini egallab borish texnologiyasini ishlab chiqish ham insondan alohida san'at va shakl jihatlarini talab qiladi.

O'qitishning zamonaliviy texnologiyalarini qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan insonparvarlik pedagogikasi pedagogik o'zaro ta'sirning eng samarali usulini tan olib, bunda o'zaro tushunishga erishiladi va muloqot orqali ta'limgan oluvchilar bilan o'z pozitsiyalarini kelishib oladilar.

Insonparvarlik — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-u saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik qilish.

Hozirgi zamon texnologiyalarida shaxsni o'rganishning juda ko'plab vositalari mavjud va ular texnologik amaliyotda keng qo'llanilib kelinadi. Bunday

vositalarning maqsadi shaxsni bevosita tarbiyalash va shakllantirish muammolarini hal etishdir.

Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish masalasi juda katta va noaniq va turli tomonlardan turli tushunchalar tarafdorlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Masalan, inson taraqqiyotining biogenetik yo'nalishi organizmning pishib etishning asosiy fenotipik xususiyatlarda tadqiqot olib boradi. Sotsietik yo'nalish - "Ijtimoiy individual" yoki "shaxsiyat" ning rivojlanishi haqidagi g'oyalarni B.G.Anaanivni tushunishda rivojlantiradi. Shaxsiy yo'naltirish asosan shaxsnинг shaxsini aniqlashning shakllanishi, o'ziga xosligini namoyon etishga olib keladi. Ammo ushbu modellarni turli xil "media" (organizm, ijtimoiy individual), organik, ijtimoiy va aqliy xususiyatlar uchun ajratish mumkin emas, chunki organik, ijtimoiy va aqliy xususiyatlar shaxsiyatga ta'sir qiladi va umumiyligi ta'sir qiladi va bir-biriga ta'sir qiladi. Shaxs bu tizimli sifat. Shunday ekan, shaxsiga yo'naltirilgan ta'limga – o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'limga-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalilanildi, ularning ayrim asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta'larning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin
3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
4. Ta'limga "muvaqqiyat muhiti"ni tashkil etish, bolaga o'qishda muvaqqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.
5. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash

Xulosa o'rnila, globallashuv sharoitida ta'limga shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisiga xos sifatlarni shakllantirishda muxim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'limga jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmosda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'limga shaxsga yo'naltirilgan ta'limga deb nomlanadi. Zero, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga – o'quvchining fikrlash va xarakat

strategiyasini inobatga olgan xolda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Indiaminov N. va b. Ta'lif samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lif. Ta'lif texnologiyalari. 2014.
2. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш. / Б.Ю.Ходиев таҳрири остида. - Т.: «Идтисодиёт», 2009.
3. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. - М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
4. Sherov, D. (2020). Succession Issues in Teaching English. Academic Research in Educational Sciences.